O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROSLARINING XALQARO MIQYOSDAGI O'RNI

Tilovboyev Muhammad
JDPU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekiston tarixiy hamda madaniy meroslarning xalqaro maydondagi o`rni, turistik faoliyatga ta`siri, bu borada qabul qilinayotgan hukumat qarorlari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Obida, meros, qadamjo, qonun, farmon, turizm.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi PQ– 4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2018 yil 19 dekabrdagi PQ–4068-son “Moddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 10 sentabrdagi F–5361-son “Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ob’ektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014yil 21 iyuldagi VMQ–200-son “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va boshqa ko‘plab huquqiy hujjatlar respublikadagi tarixiy-madaniy meros ob’ektlarini yanada chuqurroq tadqiq etishni taqozo qiladi [1.].

ADABIYOTLAR SHARHI

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

O‘zbekistonda tarixiy-me’moriy inshootlar, madaniy meros ob’ektlarini tadqiq etish chor Rossiyasi mustamlakachiligi davriga borib taqaladi. Sovet mustabid tuzumi davrida ham mazkur muammo bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Y.R.Raxmatullaev, I.M.Azimov, R.Seitovalarning dissertatsiyalarida O‘zbekistonda tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish, saqlash bilan bog‘liq ayrim muammolar tadqiq etilgan. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish muammolari bo‘yicha A.Haqqulov, P.Sh.Zohidov, M.Q.Ahmedovlar [2]ning asarlari yaratildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbekiston insoniyat tarixining beshiklaridan biri hisoblanadi. Mamlakat Teshiktosh, Selungur, Obirahmat, Afrosiyob, Varaxsha kabi insoniyatning eng qadimgi manzilgohlari; Kushon, Qadimgi Xorazm, Baktriya, So‘g‘d, Qang‘ kabi ko‘hna davlatchilik an’analari mavjud bo‘lgan hudud hisoblanadi. Tarixdan ma’lumki, bu hududda aniq (ayniqsa, matematika va astronomiya), tabiiy (geografiya, biologiya, kimyo, tibbiyot, dorishunoslik va boshqalar), ijtimoiy-gumanitar (falsafa, siyosatshunoslik, psixologiya, pedagogika, axloqshunoslik va boshqalar), islom ta’limoti (fiqhshunoslik, hadisshunoslik, kalom ilmi, tasavvuf) kabi fan sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan va dunyo sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan talay olimlar yashagan.

Xalifa Usmon topshirig‘iga binoan kiyik terisiga bitilgan muqaddas Qur’on kitobi (“Usmon mus’hafi”); yurtimizda tug‘ilib o‘sgan allomalarning ilm-fan sohasidagi erishgan yutuqlari; Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi ajdodlarimiz faoliyati dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, har bir viloyatda o‘ziga xos sayyohlik brendi yaratildi.

Mustaqillik yillarida respublikada turizm sohasini rivojlantirish uchun barcha kerakli huquqiy-me'yoriy hujjatlar [3] ishlab chiqildi va mazkur jarayon uzluksiz davom etmoqda.

Respublikada xalqaro turizm rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanib, o'zining milliy modeliga asoslangan turizmni shakllantirish uchun harakat qilinmoqda. Bu model ichki imkoniyatlarga, o'zbek xalqining mentalitetiga va jahon standartlariga mos keladigan talablarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlanmoqda.

O'zbekistonda xalqaro va ichki, ziyorat turizmning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilayotganligi munosabati bilan viloyatlardagi tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy-madaniy ob'ektlarga yangi sayyohlik yo'nalishlari ochilmoqda. Buning uchun viloyatlarda keng imkoniyatlar mavjud. Hozirda mamlakatda 180 dan ortiq xalqaro sayyohlik yo'nalishlarining 140 tasi aynan tarixiy-madaniy meros ob'ektlari bilan bog'liqdir [5]. Turizm sohasidagi keyingi islohotlar ko'plab yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni [3]ga binoan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi, Madaniyat ishlari vazirligi, Fanlar akademiyasi, yodgorliklarni muhofaza qilish respublika jamiyati hamkorlikda Buyuk ipak yo'lidagi ko'hna shaharlarda joylashgan me'moriy, arxeologik, tarixiy va madaniy yodgorliklarni qayta tiklash, obodonlashtirish hamda foydalanish bo'yicha "Meros" dasturi ishlab chiqildi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tarixiy-madaniy yodgorliklardan turizm sohasida foydalanish borasida erishilgan yutuqlar bilan birga, talaygina muammolar ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, sayyohlarni jalb qilishda ayrim viloyatlar ijobiy natijalarga erisha olmayati. Sababi, ko'plab me'moriy obidalar ilmiy asosda tadqiq etilib, yakuniy xulosaga kelinmagan, ular joylashgan hududlar xaritasi tuzilmagan, sayyohlarni o'ziga jalb qilishi mumkin bo'lgan ayrim tarixiy-madaniy yodgorliklarga sayyohlik yo'nalishlari ochilmagan. Bundan tashqari, tarixiy-madaniy ob'ektlar hududlarida xalqaro me'yorlarga javob beradigan sayyohlik infratuzilmasi yaratilmagan.

XULOSA VA MUNOZARA

Masala yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelindi:

- respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish, turizmning asosiy ob'ektlari bo'lgan tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish hamda ulardan foydalanish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda;
- ilmiy-tadqiqotlar natijasida tariximizning yangi-yangi sahifalari o'zbek xalqining ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini butun dunyoga namoyish qilmoqda va o'z navbatida, millatimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini yanada mustahkamlanishiga asos bo'lmoqda;
- respublikada aziz avliyolar, piru komillar abadiy qo'nim topgan ko'plab ziyoratgohlar hali to'liq o'rganilib, yakuniy ilmiy xulosaga kelingani yo'q. Bu masala tarixchilar uchun keng tadqiqot ob'ekti sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik. IHT Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqi // https://uz24.uz/politics/
2. Ostonov O. O'zbekistonda turizm qay ahvolda va uni rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak. https://kun.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. 2016. 2 dekabr. PF-4861-son; "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora- tadbirlari

to‘g‘risida” 2016 yil 2 dekabrdagi PF-4861-sonli farmonigao‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”. 2016. 22 dekabr. PF-4895-son. http://www.lex.uz; “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-3217- son. http://www.lex.uz;

4. Sadikov, E. T. (2021). SPECIFIC PECULIARITIES OF TEACHING AND EVALUATING PRAGMATIC SPEECH ACTS THROUGH THE LISTENING SKILLS. *EPRA International Journal of Research & Development (IJRD)*, *6*(12), 1-1.

5. Tursunovich, S. E. (2021). Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. *Middle European Scientific Bulletin*, *19*, 120-122.

6. Sadikov, E. T. (2021). ESTABLISHING CONNECTIVITY BETWEEN GRAMMAR SKILL APPROACH AND SPEECH ACTS. IS PRAGMATICS IN OR OUT?. *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ*, 52.

7. Гафуров, Б. З. ТЕКСТЫ С ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИМИ ФОНОВАРИАНТАМИ И ИХ ПЕРЕВОД (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА). *ILIM hám JÁMIYET*, 72.

8. Zakirovich, G. B. (2022). The Theme of Female Gender in the Texts of Advertising in Russian and Uzbek Languages (On the Material of Medical Vocabulary). *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, *2*(1), 23-29.

9. Gafurov, B. Z. (2022). Analysis of medical version in texts of advertising of hygiene products in the fight against COVID-19 (on the material of Russian and Uzbek languages). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL).

10. Gafurov, B. Z. Similarities and differences of segment background options for Russian, Uzbek and English languages. *Monografia pokonferency jnascience, Research, development*, *26*, 17-19.

11. Gafurov, B. Z. (2021). Medical terminology in advertising text. *Scientific reports of Bukhara State University*, *5*(3), 30-40.

12. Zakirovich, G. B. (2020). Super-segment phonostylistics as the basis for studying the problems of accent variants of Russian nouns. *CREATION OF ETHNOGRAPHIES WITH POPULAR TRADITIONS*, *11*(13), 39.

13. Gafurov, B. Z. (2021). Study of advertising texts in Russian on the topic of medical terminology. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT).– Indonesia*, *26*(1), 586-590.

14. Sadikov, E. T. (2021). SPECIFIC PECULIARITIES OF TEACHING AND EVALUATING PRAGMATIC SPEECH ACTS THROUGH THE LISTENING SKILLS. *EPRA International Journal of Research & Development (IJRD)*, *6*(12), 1-1.

15. Tursunovich, S. E. (2021). Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. *Middle European Scientific Bulletin*, *19*, 120-122.

16. Sadikov, E. T. (2021). ESTABLISHING CONNECTIVITY BETWEEN GRAMMAR SKILL APPROACH AND SPEECH ACTS. IS PRAGMATICS IN OR OUT?. *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ*, 52.